

KRIPTOVALYUTALARNING ASL “BASHARASI”

Komilova Mukarram Kobiljonovna

*Samarqand iqtisodiyot va
servis instituti katta o'qituvchisi*
komilova.mukarram29@gmail.com

Qo'ziboyev Umidjon

*Samarqand iqtisodiyot va
servis instituti talabasi*

Annotatsiya: *Maqolada kriptovalyuta haqida batafsil ma'lumot va tushuntirishlar berilgan. Uning mohiyati va kelib chiqishi, aslida hech qanday qiymat yaratmasligi va qiymatga ega emasligi, kriptovalyuta nima uchun hozirgi holatida pul bo'la olmasligi haqida aniq va batafsil bo'lgan fikrlar majmuasi mavjud. Kriptovalyutaga Islom olamining kibor ulamolari va yetakchi islom moliyasi iqtisodchilarini qarashlari va fikrlari, bu bilan shug'ullanish joiz yoki joiz emasligi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Kriptovalyuta, jeton, Akmalboy, pul, Onecoin, ilg'or texnologiya, Taqi Usmani, AAOIFI*

Аннотация: *В статье представлена подробная информация и пояснения о криптовалюте. Существует четкий и подробный набор идей о ее природе и происхождении, о том, почему она на самом деле не создает и не имеет ценности и почему криптовалюта не может быть деньгами в ее нынешнем состоянии. Подробно изложены взгляды и мнения ведущих исламских ученых-финансистов и экономистов исламского мира о криптовалюте и о том, допустимо или недопустимо ею заниматься.*

Ключевые слова: *Криптовалюта, токен, Акмальбой, деньги, Onecoin, передовые технологии, Таки Усмани, AAOIFI*

Mendan Bitcoin va kriptovalyutalar haqida ko'p so'rashgani uchun shu maqolani yozishga qaror qildim. Kriptovalyutalar haqida gapirganimda ba'zilar shunday fikr paydo bo'ladi:

“Siz blokcheyn texnologiyasini bilasizmi”, “ Mayning qanday qilinadi tushunasizmi”, “ Qanday qilib bilmasdan fikr aytasiz”, bunday tanqidiy savollar aslida o'sha insonlarning o'zida bilim va ma'lumotlar yetishmasligidan bo'ladi.

O'zingiz o'ylab ko'ring qanday qilib inson bilmagan narsasi haqida fikr yuritishi mumkin?



Shunday e'tirozlarni e'tiborga olib iloji boricha soddaroq tilda tushuntirishga harakat qilaman va Inshaalloh hammamizga manfaatli bo'ladi deb o'ylayman.

Shariatda moliyaviy va pul bilan bog'liq muomalalar ikki turga bo'linadi: evazli muomalalar va evazsiz muomalalar. Evazli muomalalarga hadya, vasiyat va shu kabi evaziga hech narsa kutilmaydigan narsalar. Evazli bitimlarga savdo, ijara va shu kabilar. Masalan, siz uyingizni ijara berdingiz va evaziga ijarachidan ma'lum miqdorda ijara haqi olasiz, bu esa evazli muomalalarga misol bo'ladi. Ya'ni bir tomon uydan foydalanish huquqini oladi ikkinchi tomon esa ijara haqini oladi. Evazli bitimlarda evaz o'zida biror bir qiymatni o'ziga olgan narsalar masalan, go'sht, non, guruch va shunga o'xshash narsalar. Agar evaz o'zida ma'lum bir qiymatni o'ziga olmagan bo'lsa u holda u o'zida qiymati bo'lgan narsaga erishish vositasi sifatida ko'rilishi kerak. Shariatda bu "Pul" deb ataladi. Ya'ni o'zida manfaati yo'q lekin manaafatli narsalarga erishish vositasi hisoblanadi. Qadimda mis, oltin, kumush va shunga o'xshash qimmatbaho metallar pul o'rnida o'tib muomala vositasi sifatida ishlatilgan. Demak, pulning asosiy vazifasi o'zida manfaati bo'lgan boshqa narsalarni olishda vositachi bo'lishidir. Bir so'z bilan aytganda pul – muomala vositasidir.

Savol. Biror narsa pul deb topilishi uchun qanday shartlar bor?

Javob. Biror narsa pul deb topilishi uchun muayyan jamiyatda biror manfaatli narsaga erishishda vosita o'laroq barcha yoki mutlaq ko'pchilik tomonidan qabul qilinishi kifoya. Masalan, aytaylik 200 kishi samolyotda uchib ketayotganida birdan samolyot qulab ular inson qadami yetmagan bir orolga tushib qolishdi. U yerda endi o'zlari harakat qilib biror narsa yetishtirishlari kerak bo'ladi. Shunda kimdir baliqchilikni, kimdir dehqonchilikni, kimdir shifokorlikni yana kimdir boshqa ishni qilishiga to'g'ri keladi. Ana shunda aytaylik shifokor baliq yegisi kelgan bo'lsa kasal bo'lgan baliqchini izlab yurishi kerak bo'lgan. Shu tariqa biror narsa umumiy ekvivalent bo'lishi zaruriyatga aylangan.

Shunda biror teri yoki toshni pul sifatida qabul qilsa bo'ladi. Agar 200 kishidan 1 kishi "men bu teringni pul deb hisoblamayman" desa ham qolgan ko'pchilik qabul qilganligi uchun teri yoki tosh muomala vositasi sifatida qo'llaniladi.

Ana endi asosiy mavzuga qaytsak, Bitcoin va shunga o'xshash kriptovalyutalar mana shunday pul hisoblanishi mumkinmi?

Bu savolga javob berish uchun yana bir jihatga e'tibor berishimiz kerak. Iqtisodiyotda "financial bubble", "economic bubble" degan tushunchalar mavjud, bular o'zbek tilida "moliyaviy pufak" yoki "iqtisodiy ko'pik" deb ataladi. Pufak hammamizga ma'lumki shishirishdan to'xtatilmasa bir kuni albatta portlaydi.

Moliyaviy pufak qanday bo'ladi?



Masalan Akmalboy ismli kishi oddiy temirdan dumaloq shaklda “ Jeton” yasaydi. Har bir jetonni bittalab raqamlab chiqadi, jeton 1, jeton 2, jeton 3 va hk. Va keyin aytadiki, “ Kim mendan bu jetonni sotib olsa undan boshqa odam 10 foiz yuqori narxda sotib oladi deydi”. Aytaylik jetonni birinchi odam \$100 dollarga sotib olsa keyin u jetonni \$110 dollarga sotadi. Uchinchi inson ko’ryaptiki birinchi odam foyda qilyapti demak men ham qilaman deydi va bu jarayon mana shunday kengaya boshlaydi. Lekin ijtimoiy tarmoqlar orqali, katta-katta insonlarni jalb qilish orqali juda qattiq reklama qilinadi. Avvaliga buni o’zining qarindoshlariga, do’stlariga va yaqinlariga sotadi. Birinchi sotgan insonlar o’zlariga mashinalar, uylar ola boshlaydi. Atrofida ko’rayotgan odamlar “bu tez boyish usuli ekan-ku” deb ular ham sotib ola boshlashadi va bu jarayon o’z-o’zidan kengaya boshlaydi. Tabiiyki insonlar sotib ola boshlashganida jetonning narxi ham osha boshlaydi, boshida \$100 dollar bo’lgan jeton qo’lma-qo’l bo’lib \$10 000, \$20 000 dollarga yetishi oddiy hol. Biroq, bir qoida borki jetonning narxi ma’lum miqdorga yetganida uni hech kim olmay qo’yadi ya’ni insonlarning psixologiyasida bundan ortiq narxga ko’tarilmaydi degan qarash paydo bo’ladi. Bu narx \$10 ming dollar bo’lishi mumkin, \$100 ming dollar bo’lishi mumkin hattoki \$1 mln dollar ham bo’lishi mumkin. Shunda hech kim jetonni olmay qo’yadi, natijada uni narxi tusha boshlaydi, oxirida olgan odamlar zararlari yanada kattalashmasligi uchun uni tez-tez sota boshlashadi. Bu moliyaviy pufakni yorilganini bildiradi. Zarar qilganlarning pullari qayerga ketadi? Albatta birinchi sotgan odam va undan keyin sotib olganlarning cho’ntagiga kiradi. Natijada iqtisodiyotda hech qanday yangi pul yaralmadi shunchaki birovning puli boshqa ikkinchi kishiga ko’chib o’tdi.

Lekin bu jetonni hali kasot bo’lishidan oldin birovga olib borib “ men sizdan kiyim, go’sht yoki boshqa narsa olmoqchiman, yonimda pulim yo’q , shu jetonni oling”, desa haligi odam olishi mumkin. Lekin bu degani jeton pul deganimi? Yuqorida biz orolda teri misolida ko’rdik hozir esa jeton misolida ko’ryapmiz, gap qaysi biri jeton yoki qaysi biri teri ekanligida emas, gap ularning mohiyatida. Yuqoridagi teri bilan jetonning o’rtasida farq bormi? Albatta farqi bor. Farqlari quyidagi nuqtalarda:

Teri pulni oroldagilar boshqa narsalarga vosita sifatida oladilar ya’ni birlamchi maqsadlari teri pulni tushishidan yoki ko’tarilishidan foyda qilish emas. Jetonning birlamchi maqsadi esa uni olib qimmatroqqa sotish bo’ladi. Teri pulni oroldagilarga qadri boshqa oshmaydi, aytaylik hozir ham 1 kg go’sht 10 yildan keyin ham 1 kg go’sht beradi desa ham odamlar uni olaverishadi, chunki maqsadlari uni ko’tarilishidan foyda olish bo’lmaydi shunchaki boshqa narsalarni ayirboshlashda vosita sifatida ko’radilar. Shu va boshqa asoslarga ko’ra oroldagilarning teri puli



“pul” deyiladi va u bilan muomala qilishning hech qanday joiz bo'lmagan joyi yoq. Akmalboyning jetonida esa spekulativ munosabatlar ya'ni puldan pul qilish bo'lganligi uchun “qimor” deyiladi va bundan daromad qilish joiz emas.

Alloh taolo aytadi “ Ey iymon keltirganlar albatta mast qiluvchi ichimliklar, budlar, qimor, fol ochuvchi cho'plar bularning barchasi iflos va jirkanch narsalardir, bularning hammasi shaytonning ishlaridir, bas ulardan uzoqroq bo'ling, shoyatki najot topsangiz“.

Ana endi asosiy savolga qaytsak. Kriptoalyutalar bilan Akmalboyning jetonida o'xshashlik jihatlari bormi.

Kriptoalyutalar jumladan, Bitcoin super kompyuterlar orqali mayning jarayonida paydo bo'ladi va istalgan kishi bu ishni qilishi va kriptoalyutalarni sotishi mumkin. Asosiy jihati kriptoalyutalarning biror bir davlat, tashkilot yoki muassasa tomonidan javobgarligi olinmagan. Ya'ni dollarga AQSH, so'mga O'zbekiston, rublga esa Rossiya o'z javobgarligini olgan. Javobgarlik birorta tashkilot tomonidan olinmaganligi bu unga nisbatan ishonchni kamaytirishini bildiradi. Ertaga to'satdan yo'q bo'lib qolsa kishilarning pullarini qaytarilishi kafolatlanmagan. Va bunda firibgarlik uchqunlari bo'lishi mumkin.


2019-yilda OneCoin nomli kriptoalyuta butun dunyo bo'yicha \$4 mlrd. dollar pulni firibgarlik yo'li bilan undirib olganligi bir misol bo'la oladi.

Kriptoalyuta savdosi bilan shug'ullanayotgan kishilar uni arzon narxda sotib olib qimmat narxda sotishdan foyda qilishga intilishadi. Bu yerda ular raqamli pul deb ataydigan kripyoalyutalar hech qanday pul vazifalarini o'z ichiga olmayapti. Shunchaki foyda olishga qaratilgan operatsiyalar amalga oshmoqda. Ho'p unda kriptoalyutalarni raqamli pul hisoblamasangiz nima deb ataysiz? Men shunchaki **“ilg'or ishlab chiqilgan texnologiya”** sifatida bilaman.

Yana bir tarafi, kriptoalyutalar insonlarga hech qanday foyda olib kelmaganligi aksincha zarar keltirishi bilan ham ajralib turadi. Birgina Bitcoinni mayning qilish uchun ketadigan elektr energiyasi butun O'zbekistonni ta'minlashga qodir bo'ladi, bu esa ancha katta elektr energiyasini isrof bo'lishiga olib keladi.

Kriptoalyutalar juda ham subutsiz bo'ladi. Ya'ni har sekunda narxi o'zgarib turadi. Agar uyingizni sotmoqchi bo'lsangiz-u uni aytaylik 5 bitcoinga baholasangiz uyni kadastr hujjatini qilguningizcha narxi o'zgarib qolishi mumkin, bu esa yana qayta hisoblash ishlarini amalga oshirishga olib keladi. Agar bitcoinda baholab uyni sotsangiz qancha summa bo'lganini bitcoinning joriy dollardagi narxiga ko'paytirasiz. Bu esa o'z-o'zidan Bitcoin va boshqa kriptoalyutalarni pul emasligini anglatadi. Shunday ekan dollar pul, Bitcoin esa qimor bo'lib qoladi. Zero, evazlar aslida manfaati bor yoki manfaatga vosita bo'lib xizmat qiladi, Bitcoinning aslida





manfaati yo'q va sen uni vosita deb davvo qilyapsan, vositalar esa narsalarning narxlarni va zararlarni qiymatini belgilaydi va barcha odamlar tomonidan pul deb qabul qilinishi kerak. Bitcoinda esa uchala sifatlarning hech biri yo'q.

Endi oxirgi masala Bitcoin va kriptovalyutalar qachondir oddiy pullar shaklida bo'lishi mumkinmi? Mumkin. Qachonki insonlar bitcoin va kriptovalyutalarni narxining oshishidan foyda qilish uchun emas, tovarlarning narxlari va zararlarning qiymati va muomala vositasi sifatida qabul qila boshlashsagina bo'lishi mumkin. Lekin hozirgi ko'rinishdagi kriptovalyutalar bunday vazifalarni bajara olishdan ancha yiroqda.

Kriptovalyutalarga shariat ulamolarining fatvolari:

1. Muftiy Muhammad Taqiy Usmoniyning javoblari

Birinchi navbatda, Muftiy Muhammad Taqiy Usmoniy hazratlarining javoblarini keltirib o'tamiz. Muftiy Muhammad Taqiy Usmoniy – islom moliyasi va iqtisodiyot bo'yicha zamonamizning eng yetuk olimlaridan biri hisoblanadi. Hozirda, Pokiston Davlat Banki Shariat Kengashi raisi, AAOIFI Shariat Kengashi raisi, Xalqaro Islom Fiqhi Akademiyasining vitse-prezidenti, va bir necha islom banklari hamda xalqaro



tashkilotlarning shariat kengashi raisi lavozimida faoliyat yuritadilar.

**Opinion of His Excellency Mufti Muhammad Taqi Usmani about
Crypto Currency Trading**



Today I visited the august office of my beloved teacher his Excellency Mufti Muhammad Taqi Usmani and raised a question about the shariah permissibility of Crypto Currency Trading; since currently its use is trending for business purposes. So much so that it is becoming the basis for creation of various financial institutions, and many countries are in the process of regulating it on a state level. So, in the current scenario, how should the shariah scholars guide masses who are continuously enquiring its shariah status?

Answer by Mufti Muhammad Taqi Usmani:

"For now, we are not satisfied with it. It is mostly being used for speculative purposes. Personally, I won't recommend it, rather it seems to be impermissible in principle. However, it could happen that in future, its use may expand for real trade and we might have to revisit the current decision.

There's no doubt that this currency is speculative in nature. Even its mass use is not likeable either from shariah perspective. This is a part of an international underplot. Initially, paper currency was enforced and now world is being pushed towards digital currency, which isn't backed by any asset. The near future plan is may be to make the economies dependent upon these, and subsequently these money masters will financially enslave the weaker economies. Therefore, we cannot encourage it and, as per fiqh, there's no sound ground devised till yet to grant it's permissibility."

Note: I produced this transcript to his Excellency Mufti Sahab and he endorsed it for general dissemination.

Written by
Dr Mufti Muhammad Wasie Fasih Butt,
Student of **Mufti Muhammad Taqi Usmani Sahab**
±92-3312569263
Dated: May 10, 2021

Yuqoridagi rasmda ko'rsatilgan javobda, ustoz kriptoalyuta hozir asosan spekulyativ maqsadlarga xizmat qilayotganini, uning joizligini tasdiqlovchi asos yo'q ekanligini aytganlar va u bilan shug'ullanishni tavsiya qilmaganlar. Savol-javobning o'zbek tilida tarjimasi quyida berilgan.

Savol: Kriptoalyutadan biznes maqsadlarda foydalanish ommalashib bormoqda. Shu darajadagi, u turli moliya tashkilotlarini yaratish uchun asos bo'lmoqda va ko'plab mamlakatlar uni davlat miqyosida tartibga solish jarayonida. Hozirgi vaziyatda, shariat ulamolari kriptoalyuta savdosining shariat maqomini so'rayotgan ommaga qanday yo'l-yo'riq ko'rsatishi kerak?

Muftiy Muhammad Taqiy Usmoniy hazratlarining javobi:



“Hozircha bu bilan qanoatlana olmaymiz. Kriptovalyutadan asosan spekuliyativ maqsadlarda foydalanilmoqda. Shaxsan men uni tavsiya qilmayman. Biroq, kelajakda undan haqiqiy savdo maqsadida foydalanish kengayishi mumkin va shunda biz hozirgi qarorni qayta ko'rib chiqishga to'g'ri kelishi mumkin.

Hech shubha yo'qki, bu valyuta spekuliyativ xarakterga ega. Hatto undan ommaviy foydalanish ham shariat nuqtai nazaridan afzal ko'rilmaydi. Dastlab, qog'oz valyutalar joriy qilindi va hozir dunyo hech qanday aktivga birlashtirilgan raqamli valyuta tomon harakatlanmoqda. Bu xalqaro rejaning bir qismi. Yaqin kelajakdagi reja, iqtisodlarni kriptovalyutalarga qaram qilish bo'lishi mumkin. Va keyinchalik bu pul egalari zaif iqtisodlarni moliyaviy qullikka aylantirishi mumkin. Fiqhga ko'ra ularning joizligini tasdiqlovchi aniq asos hozir mavjud emas, shuning uchun kriptovalyutani qo'llab-quvvatlay olmaymiz.”

2. Dr. Shayx Ali Muhyiddin Al Qoradog'iyning fatvolari

Butun dunyo musulmon ulamolari uyushmasining bosh kotibi bo'lgan Shayx Ali Muhyiddin Al Qoradog'iy, islom iqtisodiyoti bo'yicha dunyodagi sanoqli yetuk mutaxassislardan biri hisoblanadilar. Fiqh, iqtisod, bank mavzularida yuzlab tadqiqot ishlari va o'ttizdan ortiq kitoblar muallifi hamda ko'plab islom tashkilotlari shariat kengashi a'zosi, Qatar Universitetida professor bo'lib faoliyat yuritib kelmoqdalar.

“Shariatda pul birligi bo'lishi uchun qo'yiladigan 2 xil talab bor.

1. O'z zotida qiymatga ega bo'lishi. Masalan, oltin va kumushga o'xshab. Bu turdagi pul birligida bizning nazdimizda muammo yo'q.

2. Ishonarli bo'lishi, uning ortida davlat turishi, himoyalashi va kafolatlashi lozim.

Shundan kelib chiqib, Bitcoin va shu turdagi raqamli valyutalar oltin va kumushga o'xshab o'z zotida asl qiymati mavjud emas va ularning ortida kafolatlaydigan, himoya qiladigan davlat ham yo'q. Kriptovalyutani barcha bir ovozdan tovar-mahsulot ham emasligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, uning moliyaviy huquqi ham mavjud emas, balki u faqatgina ilg'or ishlab chiqilgan dasturdir xolos. Bu bo'yicha chuqur o'rganilgandan so'ng, shariatning hukmi quyidagicha: Bitcoin va shunga o'xshash shifrlangan yoki raqamli valyutalarga sarmoya qilish joiz emas va bu pul (mol-mulk)ning muhofazasi uchundir. Ribo sababli harom qilingan emas. Men islom davlatlarini raqamli valyutalarni muomalaga chiqarishga, davlat tomonidan ularga kafil bo'lishga, va ular uchun tizim yaratishga chaqiraman.”

3. Ustoz Hondamir Nusratxo'jayevning javoblari



Islom moliyasi va korporativ moliyada ko'p yillik tajribaga ega, AAOIFI kengashi a'zosi, ustoz Hondamir Nusratxo'jayevning kriptovalyuta haqida berilgan savolga javoblarini quyidav batafsil bilib olishingiz mumkin.

Savol: ... G'arardan kelib chiqqan holatda xulosa qilish mumkinki, hozir shunchalik noaniqlik bo'lgani uchun, kriptovalyutaning oldi-sotdisi islom moliyasiga ko'ra joiz emas deb ulamolar hukm chiqarishgan deb xulosa qilishimiz mumkinmi?

Ustoz Hondamir Nusratxo'jayev quyidagi sabablarni aytib o'tganlar:

1. Ayirboshlash vositasi emas.

2. Siz kim bilan muomala qilayotganingizni bilmaysiz.

3. Spekulyatsiya uchun ishlatilmoqda, ya'ni puldan pul qilish. Asosiy maqsad puldan pul qilish. Har bir istalgan ulamodan so'rasangiz (moliyani tushunadigan), spekulyatsiya bilan qimor tengma-teng yurishini aytishadi. Spekulyatsiyani oxiri qimor (maysir)ga taqaladi.

3. Bu pullar yo'q joydan yaratilmoqda va keyin ularga haqiqiy boylik sotib olinmoqda. Bundan farqli ravishda, dollar kabi pullar (so'm, rubl) real iqtisodiy mexanizm asosida ishlaydi.

4. Boshqa olim va mutaxassislarning kriptovalyuta bo'yicha fatvo va javoblari

Yuqorida keltirilgan fatvo va javoblardan tashqari, kriptovalyutaning joiz emasligi haqida bir necha boshqa manbalarni ham topishingiz mumkin. Xususan, Misrning bosh muftiysi Shoki Ibrohim Allam kriptovalyuta bilan shug'ullanish (qazib chiqarish, savdo qilish, va h.k.)ni harom deb fatvo chiqarganlar. Taniqli islom ulamolaridan biri bo'lgan, Shayx Assim al-Hakim ham Bitcoin va unga o'xshash kriptovalyutalarning joiz emasligini aytganlar. Shuningdek, O'zbekiston Musulmonlar Idorasi Fatvo hay'ati tomonidan ham kriptovalyuta joiz emasligi aytilgan.

Lekin hozirda kriptovalyutaning ijobiy tomonlarini yoqlab chiqayotgan va Bitcoin kabi ayrim kriptovalyutalarning joiz ekanligini ta'kidlayotgan islom ulamolari ham yo'q emas. Umuman olganda hozirda kriptovalyutalarning halolligi borasida 3 xil qarash mavjud.

Kriptovalyutani harom deb hisoblovchi ulamolar. Bu ulamolarga Shayx Ali Muhyiddin Al Qoradog'iy, Shayx Shoki Ibohim Allam, va Shayx Assim al-Hakim hazratlarini misol keltirishimiz mumkin.

Kriptovalyuta bilan bog'liq hozir shubhali va mavhum holatlar mavjud ekanligi va uning halolligi borasida aniq asos yo'q deb hisoblovchi ulamolar. Bu ulamolar kripto bilan hozircha shug'ullanishni tavsiya qilmaganlar va yakuniy qarorlarini



berishni keyinga qoldirganlar. Bu ulamolarga Muftiy Muhammad Taqiy Usmoniy hazratlarini misol keltirishimiz mumkin.

Kriptovalyutani halol deb hisoblovchi ulamolar. Bu ulamolar barcha turdagi kriptovalyutalarni halol deb aytmaganlar, balki muayyan me'zonlarga javob bergan kriptovalyutalarnigina halol deb aytganlar. Bu ulamolarga Muftiy Faraz Adam va Shayx Yasir Qadhi kabi ulamolarni misol keltirishimiz mumkin.

Hozirgi holatda, kriptovalyutani joiz emas deb aytishgan yohud u bilan shug'ullanishni tavsiya qilmagan taniqli ulamolarning fatvo va ko'rsatmalariga amal qilgan holda, halol deb aytilayotgan hollarga batafsil to'xtalishni lozim deb topmadik. Zero, Muftiy Taqiy Usmoniy va Shayx al Qoradog'iyarning hozir kriptovalyuta joiz emasligi haqidagi fatvolari va tavsiyalari, bu ish bilan shug'ullanmaslik uchun yetarli asos bo'ladi deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qobiljonovna K. M. et al. IQTISODIYOTDA VIRTUAL VALYUTA, YA'NI KRIPTOVALYUTA SHAKLARI VA RIVOJLANISHI //SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI. – 2024. – T. 7. – №. 1. – C. 218-222.
2. Qobiljonovna K. M. et al. TIJORAT BANKLARINING KREDIT SIYOSATI //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2024. – T. 3. – №. 30. – C. 116-118.
3. WWW.uplift.uz
4. WWW.islommoliyasi.uz
5. https://youtube.com/@Mahmud_Usmon
6. Kobiljonovna K. M. PROJECT ACTIVITIES IN RUSSIAN LANGUAGE CLASSES //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2023. – T. 12. – №. 12. – C. 70-74.

